



**O'SPIRINLARDA PROSOTSIAL XULQ-ATVOR USTANOVKALARINING  
SHAKLLANISHI VA NAMOYON BO'LISHI**

*Nizomiy nomidagi TDPU  
"Psixologiya" kafedrası o'qituvchisi  
Rahimova Sarvinoz Odilboy qizi*

**Annotatsiya:** *Maqolada o'spirinlarda prosotsial xulq-atvor ustanovkalarining shakllanishi va nomoyon bo'lishi omillari to'g'risida fikr – mulohazalar bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *o'spirinlar, ijtimoiy ustanovkalar, elementar ustanovkalar, bazaviy ijtimoiy ustanovkalar, prosotsial xulq-atvor, altruizm*

**АННОТАЦИЯ:** *В статье представлены мнения и комментарии о факторах формирования и отсутствия просоциального поведения у подростков.*

**Ключевые слова:** *подростки, социальная установка, элементарная установка, базовые социальная установка, просоциальное поведение, альтруизм*

**Annotation:** *The article presents opinions and comments about the factors in the formation and absence of prosocial behavior in adolescents.*

**Key words:** *teenagers, social institutions, elementary institutions, basic social institutions, prosocial behavior, altruism*

Hozirgi kunda yoshlarga berilayotgan katta e'tiborni amalga oshirilayotgan ishlar zamonaviy yoshlarimizning intellectual salohiyatlari tahsinga sazovordir lekin shu o'rinda ularning zamon talablariga javob beruvchi ijtimoiy normalari ya'ni ijtimoiy norma tushunchasi prosotsial xulq atvor ustanovkalari qay darajada shakllanayotganliginini o'rganish, ijtimoiy ong, ijtimoiy xulq atvor tushunchalarini o'rganish, zamonaviy yoshlarda o'zgalarga beminnat yordam ko'rsatish va undan rohatlanish altruistic xulq atvor ko'rinishlarini o'rganish, ularning qadriyatlar tizimini, empativ qobilyatlarini prosotsail xulq atvor ustanovkalariga qay darajada bog'liqligini o'rganish va shu prosotsial ustanovkalarni shakllantirish usullarini izlab topish ushbu vazifalarni to'liq amalga oshirishni taqozo etadi.

Ma'lumki, o'spirinlik davri o'zining muhim hayotiy sharoitlari, ehtiyojlari va faoliyati, o'ziga xos qarama-qarshiliklari, psixikasining sifat xususiyatlari va psixik jihatdan xarakterli yangi sifatlarning hosil bo'lishi bilan ajralib turadi. Shunga ko'ra o'spirinlik davri o'zidan oldingi davr tomonidan tayyorlanib, uning asosida shakllanadi va o'z navbatida, o'zidan keyingi davrning paydo bo'lishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shu o'rinda psixologiyada mavjud yosh davrlarini tabaqalash nazariyalariga urg'u berib o'tish maqsadga muvofiqdir.



## **"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"**

Umuman olganda zamonaviy o'spirinlarning prosotsial xulq-atvor to'g'risidagi ustanovkalar va ularning o'spirinlik davrining tarkib topishi, rivojlanishi hamda shakllanishiga oid nazariyalarning psixologik adabiyotlarda o'rganilganlik darajalarini tahlil qilish o'z navbatida yosh davrlarini tabaqalash nazariyalarining tadqiqotchilar tomonidan turli xil jihatlari har xil maqsad va usullar yordamida o'rganilganligini ko'rsatadi.

Ijtimoiy ustanovkalar. Sof psixologik ma'noda yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantiruvchi va o'zgartiruvchi ijtimoiy psixologik mexanizm – bu ijtimoiy ustanovkalardir. Bu – shaxsning atrof muhitida sodir bo'layotgan ijtimoiy xodisalarni, ob'ektlarni, ijtimoiy guruhlarni ma'lum tarzda idrok etish, qabul qilish va ular bilan munosabatlar o'rnatishga ruhiy ichki hozirlik sifatida odamdagi dunyoqarashni ham o'zgartirishga aloqador kategoriyadir.

Rus olimi V. A. Yadov o'zining dispozitsion konsepsiyasini yaratib, unda ustanovkalarni to'rt bosqich va to'rt tizimli sifatida tasavvur qilgan.

A) elementar ustanovkalar (set) – oddiy, elementar ehtiyojlar asosida ko'pincha ongsiz tarzda hosil bo'ladigan ustanovkalar. Ularni o'zgartirish uchun moddiy shart-sharoitlarni va odamdagi ehtiyojlar tizimini o'zgartirish kifoya.

B) ijtimoiy ustanovkalar (attitud) – ijtimoiy vaziyatlar ta'sirida ijtimoiy ob'ektlarga nisbatan shakllanadigan ustanovkalar. Ularni o'zgartirish uchun ijtimoiy shart-sharoitlar va shaxsning ularga nisbatan baho va munosabatlari tizimini o'zgartirish kerak.

V) bazaviy ijtimoiy ustanovkalar – ular shaxsning umumiy yo'nalishini belgilaydi va ularni o'zgartirish e'tiqodlar va dunyoqarashlarni o'zgartirish demakdir.

G) Qadriyatlar tizimi – ular avlodlararo muloqot jarayonining mahsuli sifatida jamiyatda qadr-qimmat topgan narsalarga nisbatan ustanovka. Masalan, sahih hadislar shunday qadriyatlardir, biz ularni tanqidsiz, muhokamalarsiz qabul qilamiz, chunki ular ham ilohiy, ham eng buyuk insonlar tomondan yaratilgan va avloddan avlodga o'z qadrini yo'qotmay kelayotgan qadriyatlardir.

Ijtimoiy ustanovkalarni o'zgartirishning eng sodda va qulay yo'li – bu ayni vaziyatlar va ulardagi ta'sirlarni qaytarishdir. Bu qaytarish qayd qilingan obraz sifatida inson ongida uzoq muddatli xotirada saqlanadi va vaziyat paydo bo'lganda, ob'ektivlashadi, ya'ni o'z kuchini va mavjudligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham agar chet el tajribasiga murojaat qiladigan bo'lsak, u yerda biror g'oyani onga singdirish uchun bir odam yoki biror guruh o'z siyosiy, mafkuraviy yoki boshqa qarashlarini bir xil so'zlar va iboralar, xarakterlar bilan qaytaraveradi va shu yo'l bilan ko'pchilikning ma'qullashiga erishadi. Ayniqsa, saylov oldi tadbirlarida ana




## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

shu usul keng qo'llaniladi. Shulardan kelib chiqib, ijtimoiy ustanovkalarni o'zgartirishning usullari va psixologik vositalari orqali ham dunyoqarashni o'zgartirishga erishish mumkin.

Shaxsiy yondoshuv. Biologik yondoshuvga monand holda shaxsiy yondashuv prosotsial xulq-atvorni individga yordam ko'rsatish nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi. Ammo bu yondashuvni genetika nuqtai nazari sifatida hisoblash shart (ana shu imkoniyatni inkor etmagan holda) emas. Lekin ijtimoiy jihatdan o'rganish joizdir. Altruizmning shaxsiy nazariyasining ikki turi mavjuddir: ba'zilar altruistik xulq-atvorni kayfiyatga, emotsiyaga bog'lagan holda tushuntirsa, boshqalari altruizmni xulq-atvorning doimiy xarakterdaligi bilan aniqlanadi.

Psixolog Deniel Beytsonning uqdirishicha bizning tayyorgarligimiz o'z manfaatlarimiz haqida qayg'urish va altruistik mulohazalar yuritishning




omixtasini tashkil etadi. (12.1-rasm). (Batson, 2001).

Rasm-12.1. Yordam ko'rsatish: egoizm va altruizmga asoslanilgan mexanizmlar. O'zgalarning baxtsizligi insonda aralash his-hayajonlarni chaqirishga qodir bo'lib, o'z qalbidagi notinchlikka quloq tutgan holda o'zgalarga hamdardlik bildiradi olish. Tadqiqotchilar o'z qalbidagi notinchlik egoistik motivlarga asoslangan mexanizmni ishga tushishi mumkinligiga rozidirlar. Ammo empatiyaning haqiqiy altruizm mexanizmini ishga tushirishga qodir yoki qodir emasligi masalasi hamon ochiq qolmoqda.

O'zaro do'stona aloqalar ularga ilgari ko'rsatilgan g'amxo'rliklar natijasiga asoslanganda juda samarali bo'ladi.




## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"



Labaratoriyada o'tkaziladigan tajribalar jarayonida hamda kundalik turmushda ham tasodifiy, hech qanday mas'uliyat yuklamaydigan tanishuvlar doimiy munosabatlardan ko'ra ko'proq egoistlikka moyillikni keltirib chiqaradi. Insonlar odatda o'zlarini bildirmagan holda o'zlariga birovlar tomonidan qilingan yaxshiliklar uchun yaxshi amallarni bajarishga qodirdirlar. Mark Uotli va uning hamkasblari o'zlarining tajribalaridan birida o'zlarining sinalayotgan guruhlari, ya'ni universitet talabalari, o'zlarini ilgari konfet bilan siylagan kishi uchun katta tayyorgarlik ko'rgan holda xizmat qildilar.

Latane va Darlilar tajriba materiallarini umumlashtirar ekanlar, shunday xulosaga keldilar:





## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

demak voqea-hodisaga shohid bo'lganlarning sonlari qancha ko'p bo'lsa ularning har biri sodir bo'lgan voqeani payqaydilar. Uni voqev yoki sodir bo'lgan baxtsiz voqea bilan bog'lagan holda ayrim aniq dalillar bo'yicha mas'uliyatni o'z bo'yniga olishi mumkinlik darajasi kamayib boradi. (Rasm- 12.3).

(Rasm- 12.3). Latane va Darlining "daraxt"i bo'yicha qaror qabul qilish.

Bu daraxtning faqatgina bitta shoxchasi yordam ko'rsatish sari boradi. Har bir ayri yo'lda boshqa guvohlarning mavjudligi insonni yordam ko'rsatishga undamaydigan shoxcha sari yo'llashi mumkin.

Oldin ham pul so'ralganda sadaqa berganlardan yana (odob doirasida) so'ralganda ular quruq qo'yishmadi. Ammo pul yig'uvchi har bir uyga kirib chiqarkan, katta miqdordagi pulni so'rmaganligi sababli unga rad javobini berish ham noqulay bo'lib, katta samaraga erishish mumkin bo'ladi va shu tariqa alturistning obro'si saqlab qolinadi.



(-Oyijon, menga ustiga shokolad kukuni sepilgan va qulupnay solingan morojenoe berasizmi?

-Hecham-da!

- A bir juft pechenechi? - Pechene? Marhamat"

Bu mening o'ziga xos hiylam "Ko'proq so'rasang-ozrog'idan bahramand bo'lasan! Hech qachon menga pand bermagan.")

Altruistik qirralar "Men"da yanada kuchayishi mumki, agarda insonni "katta qalb egasi" deydigan bo'lishsa. Uning haqqoniyligi esa Konnektikut (Kraut, 1973) shtatida Robert Kraut tomonidan o'tkazilgan tajriba natijasida tasdiqdan o'tkazilgan. U sadaqa bergan uchala ayolning har biriga "katta qalb egasi"siz deya so'z qotgan. So'ng ikki haftadan keyin yana xayriya so'ralganda ular bu so'zlar aytilmagan boshqa insonlarga nisbatan ko'proq pul berganlar. Xuddi shunga o'xshash natijalarni Anjelo Strent va Uilyam De Jong lar ham qo'lga kiritishgan. Bunda shaxsiy sifatlar bo'yicha testdan o'tkazilgan talabalarga ularning xarakterlaridan kelib chiqqan holda tajriba o'tkazuvchi ularga sizlar g'amxo'r va mehribon



## **"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"**

ekansizlar degan so'zlarni aytgan. So'ng, tajriba o'tkazuvchining qo'lidan perfokartalar to'pi tushib sochilib ketganida aynan ana shu talabalar birinchilardan bo'lib yordam ko'rsatishga oshiqishgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. G'oziev E.G. Psixologiya. Toshkent, 1994
2. Karimova V. M. «Ijtimoiy psixologiya asoslari». – T., 1994
3. F.I.Xaydarov N.I.Xalilova "Umumiy psixologiya" Toshkent -2009  
Майерс Д. Социальная психология. – СПб., 199